



PROFILAKTIKA INSPEKTORINING “OILABAY” ISHLASHDA NOTINCH OILALAR BILAN ISHLASH FAOLIYATINING TASHKILIY-HUQUQIY ASOSLARI

Nasibbekov Jaloliddin Latif o'g'li

O'zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasi

3 o'quv kursi 318 guruh kursanti

ANNOTATSIYA

Ushbu maqola muallif oilaning tinchligi qanchalik ahamiyatga ekanligini, oila jamiyatning bir bo'g'ini sifatidagi mazmunini, profilaktika inspektori tomonidan notinch oilalar bilan ishlash faoliyatining o'ziga xos jixatlarini, profilaktika inspektori tomonidan amalga oshirilishi lozim bo'lgan ishlar yuzasidan o'z fik mulohazasini bildirib o'tgan.

Kalit so'zlar: *notinch oila, ma'naviy tahdid, oilaning tinchligi, huquqbazarlik, zo'ravonlikdan himoya qilish, ayollar daftari.*

АННОТАЦИЯ

В данной статье автор показывает насколько важен покой в семье, значение семьи как звена общества, особенности деятельности инспектора по профилактике, работающей с неблагополучными семьями, его мнение о работе, которую следует осуществляется инспектором по профилактике.

Ключевые слова: *неблагополучная семья, моральная угроза, семейный мир, преступление, защита от насилия, женская тетрадь.*

ANNOTATION

In this article, the author shows how important the peace of the family is, the meaning of the family as a link of society, the specific aspects of the activities of the prevention inspector working with troubled families, his opinion on the work that should be carried out by the prevention inspector. said.

Key words: *troubled family, moral threat, family peace, crime, protection from violence, women's notebook.*

Huquqbazarliklarning oldini olish tizimining ajralmas qismi bo'lgan oila-turmush doirasidagi huquqbazarliklarning oldini olish davlat hokimiyati organlari, huquqbazarliklar, shu jumladan jinoyatlar profilaktikasini amalga oshiruvchi va unda ishtirok etuvchi organ vamuassasalar, shuningdek, keng jamoatchilikning sog'lom ma'naviy-ruhiy muhitni shakllantirish, ijtimoiy jihatdan xavfli ahvolda bo'lgan oilalarni, oila-turmush doirasida muntazam huquqbazarlik sodir etuvchi shaxslarni aniqlash, bu sohaga qaratilgan umumiyl, maxsus va viktimologik profilaktik chora-tadbirlarni ishlab chiqish hamda tizimli ravishda amalga oshiriladigan faoliyatdir.



Profilaktika xizmati apparatlarining oila-turmush doirasidagi huquqbuzarliklarning oldini olish bo'yicha faoliyati O'zbekiston Respublikasining «Huquqbuzarliklar profilaktikasi to'g'risida»gi qonunining va ushbu qonun ijrosini ta'minlashga qaratilgan qonunosti normativ-huquqiy hujjatlarning talablari asosida tashkil etiladi. Profilaktika xizmatlari vakolatlari doirasida oila-turmush sohasidagi huquqbuzarliklarning oldini olish bo'yicha quyidagi profilaktik chora-tadbirlarni amalga oshiradi va tashkil etadi:

– oila-turmush munosabatlari doirasidagi huquqbuzarliklar pro-filaktikasiga doir davlat va hududiy dasturlarini ishlab chiqishda va amalga oshirishda ishtirok etadi;

– oila-turmush munosabatlari doirasidagi huquqbuzarliklar profilaktikasiga doir sohaviy dasturlarni ishlab chiqish va amalga oshirishni tashkil qiladi;

– aholi o'rtasida oila-turmush munosabatlari doirasidagi huquqbuzarliklarning ijtimoiy xavfi, salbiy oqibatlari, shu jumladan oiladagi nosog'lom muhit oqibatida sodir etilayotgan og'ir va o'ta og'ir jinoyatlar, ularning sabab va sharoitlari hamda ularni bartaraf etish mavzulari haqida ma'ruzalar tayyorlaydi, fuqarolar o'rtasida tushuntirish, targ'ibot-tashviqot ishlarini tashkil etadi;

– oila-turmush munosabatlari doirasidagi huquqbuzarlik-larning sodir etilishi sabablarini va ularga imkon berayotgan shart-sharoitlarni aniqlaydi, tahlil qiladi hamda ularni bartaraf etish to'g'risida tegishli fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari, tashkilot, muassasa va korxonalarga taqdimnomalar kiritadi;

– kriminogen vaziyati og'ir hududlarda sodir etilayotgan oila-turmush doirasidagi huquqbuzarliklarni o'rganishni tashkil etadi, uning oldini olish bo'yicha ilg'or ish usullari va shakllarini amaliyatga joriy etishni tashkil qiladi;

– ma'muriy hududlarda yashovchi ijtimoiy jihatdan xavfli ahvolda bo'lган oilalar hamda farzandining tarbiyasiga salbiy ta'sir ko'rsatuvchi ota-onalar va ularning o'rnini bosuvchi shaxslarni o'z vaqtida aniqlash, hisobini yuritish, targ'ibot-tashviqot ishlarini olib borish bo'yicha tegishli ko'rsatma va topshiriqlar beradi, shuningdek uslubiy yordam ko'rsatadi;

– huquqbuzarliklar profilaktikasini bevosita amalga oshiruvchi va unda ishtirok etuvchi boshqa organlar hamda muassasalar bilan oila-turmush doirasidagi huquqbuzarliklar bo'yicha o'zaro hamkorlikni tashkil etadi;

– oila-turmush munosabatlari doirasida huquqbuzarliklar sodir etuvchi shaxslarni aniqlash, ular bilan yakka tartibdagi profilaktik chora-tadbirlarni amalga oshirish, oila-turmush doirasida muntazam huquqbuzarlik sodir etuvchi shaxslarni turmush tarzini o'rganish bo'yicha, ularning g'ayriijtimoiy xulq-atvorini ijobiy tomonga o'zgartirish bo'yicha uslubiy qo'llanmalar va tavsiyalar ishlab chiqadi;

– oila-turmush doirasidagi huquqbuzarliklar, ularni sodir etuvchi shaxslar ko'paygan hududlarda ularning sabab va sharoitlari kuchaygan davrda «Turmush»,

«Xonadon» va boshqa alohida dastur hamda rejalar asosida maxsus profilaktik chora-tadbirlarni amalga oshirishni tashkil etadi, ularning natijalarini tahlil qiladi;

Profilaktika xizmati apparatlari ijtimoiy jihatdan xavfli ahvolda bo'lgan oilalarni mazkur qonunning 35-moddasiga asosan 1 yil muddatga ichki ishlar organlarining «hisob profilaktika ishi» yuritilishini tashkil etadi va uning nazoratini olib boradi.

Profilaktika xizmati apparatlari oila-turmush doirasidagi huquqbazarliklar profilaktikasi bo'yicha asosiy vazifalari quyidagilardan iborat:

- ijtimoiy jihatdan xavfli ahvolda bo'lgan oilalarni o'z vaqtida aniqlash va ularni profilaktik hisobga olish hamda ular bilan doimiy ravishda tarbiyaviy ahamiyatga ega bo'lgan profilaktik suhbatlar o'tkazish va oilada sog'lom ma'naviy-ruhiy muhitni shakllantirish bo'yicha choratadbirlar ishlab chiqadi;

- ma'muriy hududdagi oilalarda qarindosh-urug' va qo'ni-qo'shnilar o'rtaida sodir etilgan nizolarni o'z vaqtida aniqlab ularning sabab sharoitlarini o'rganish va uni bartaraf etish borasida fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari bilan hamkorlikni tashkil etish bo'yicha chora-tadbirlar ishlab chiqadi;

- ijtimoiy jihatdan xavfli oilalarni aniqlash, aniqlangan huquqbazarliklar yuzasidan choralar ko'rish hamda muntazam oila-turmush doirasida huquqbazarlik sodir etuvchi shaxslarni aniqlab ichki ishlar organlarining profilaktik hisobiga olish yuzasidan profilaktika inspektorlariga tegishli ko'rsatma va topshiriqlar beradi;

- oila-turmush munosabatlari doirasidagi jinoyatlarning oldini olish sub'ektlari faoliyatini takomillashtirish uchun bu sohada qilingan ishlarni umumlashtirish, tahlil qilish hamda erishilgan ijobiy tajribalarni tizimga joriy qiladi;

- ijtimoiy jihatdan xavfli oilalarda tarbiyalanayotgan voyaga yetmaganlarning bo'sh vaqtlarini unumli tashkil etish, ularni huquqbazarlik yo'liga kirib ketishining oldini olish borasida ma'naviy va huquqiy mavzularda tarbiyaviy ahamiyatga ega bo'lgan profilaktik ishlarni olib borishni tashkil etadi va uni nazorat qiladi;

- oila-turmush doirasidagi huquqbazarliklarning kelib chiqish sabab va sharoitlarini o'rganadi va ularni bartaraf etish bo'yicha tegishli taklif va tavsiflar ishlab chiqadi;

- ma'muriy hududda zo'ravonlikni, maishiy buzuqlikni, jinoiy hayot tarzini, jinoyat hisobiga yaxshi hayot kechirishni targ'ib etuvchi adabiyotlar, kino va video mahsulotlari, gazeta, jurnal va boshqa manbalar orqali kirib kelayotgan hamda shaxsning shakllanishiga salbiy ta'sir etuvchi axborot yo'liga mustahkam to'siqlar qo'yish³² bo'yicha profilaktika (katta) inspektorlariga tegishli topshiriq va vazifalarni belgilab beradi;

- o'ziga biriktirilgan hududdagi fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari, fuqarolar yig'ini kengashi, uning raisi, komissiyalari, diniy ma'rifat va ma'naviy-axloqiy tarbiya masalalari bo'yicha maslahatchi, tuman hokimliklari huzuridagi voyaga yetmaganlar ishlari bo'yicha, shuningdek, jazoni o'tash joylaridan ozod



qilingan shaxslarga ijtimoiy yordam ko'rsatish bo'yicha maxsus komissiyalar bilan o'zaro hamkorlikdagi ishlarni o'z vaqtida tashkil etish va uni takomillashtirish bo'yicha tegishli ishlarni amalga oshiradi.

Profilaktika (katta) inspektorlari oila-turmush doirasidagi huquqbuzarliklarning sabab va sharoitlarini o'rganib uning kelib chiqishiga ta'sir etuvchi omillarga alohida e'tibor berishlari talab etiladi. Misol uchun, profilaktika inspektori o'z xizmat hududida muntazam nizo va kelishmovchiliklar vujudga keladigan oilalarni o'z vaqtida aniqlash ushbu oilalarda sog'lom ma'naviy muhitni shakllantirish, oila a'zolari o'rtasidagi nizoli munosabatlarni ijobiy hal etish bo'yicha chora-tadbirlarni amalga oshirishni tashkil etishi lozim. Zero, «Oila sog'lom ekan jamiyat mustahkam, jamiyat mustahkam ekan – mamlakat barqarordir».

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Pulatov YU.S., Ismailov I., Qurbonov A. Ichki ishlar organlarida boshqaruvin asoslari: Darslik. – T.: O'zR IIIV Akademiyasi, 2005. – B. 104.
2. Zaripov Z.S. Профилактическая функция следственных подразделений органов внутренних дел. – Т., 1980. – С. 57.
3. Afanasev V.A. Организация работы участкового инспектора милиции М. 1990., С.-38
4. O'zbekiston Respublikasi " Huquqbuzarliklar profilaktikasi to'g'risida" gi qonuni

